



\_\_\_\_\_ hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi  
\_\_\_\_\_ning

20\_\_ - 20\_\_ - o'quv yiliga 6 – sinf  
adabiyot fanidan I chorak uchun

**DARS**  
**ISHLANMALARI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘IBDO‘** \_\_\_\_\_

**20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan 6-sinf adabiyot fanidan I chorak taqvimiy mavzu  
rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
<b>I chorak</b>				
1.	Kirish: Badiiy matnni tahlil qilish bosqichlari	1		
2.	Abdulla Qahhor: “O‘g‘ri” hikoyasi: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
3.	Abdulla Qahhor: “O‘g‘ri” hikoyasi: Asar matni bilan ishlash	1		
4.	Abdulla Qahhor: “O‘g‘ri” hikoyasi: “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Badiiy asar tili.	1		
5.	G‘afur G‘ulom: “Shum bola” qissasidan parcha: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
6.	G‘afur G‘ulom: «Shum bola» qissasidan parcha: Asar matni bilan ishlash	1		
7.	G‘afur G‘ulom: «Shum bola» qissasidan parcha: “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash.	1		
8.	Asar va filmdagi obrazlarni solishtirish	1		
9.	<b>BSB-1. Taassurot yozish. (50 ball)</b>	1		
10.	Odil Yoqubov: Muallif hayoti va ijodi.«Yaxshilik» hikoyasi: Asar matni bilan ishlash	1		
11.	Odil Yoqubov: «Yaxshilik» hikoyasi: “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. O‘xshatish	1		
12.	Odil Yoqubov: «Yaxshilik» hikoyasi: Loyiha taqdimoti	1		
13.	O‘tkir Hoshimov: “Dunyoning ishlari” qissasidan bob: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
14.	O‘tkir Hoshimov: «Dunyoning ishlari» qissasidan bob: Asar matni bilan ishlash	1		
15.	O‘tkir Hoshimov: «Dunyoning ishlari» qissasidan bob: “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Badiiy matnning o‘ziga xos xususiyatlari	1		
16.	Fanlararo aloqa: Adabiyot va tarix. Takrorlash	1		
17.	<b>CHSB-1(40 ball)</b>	1		
18.	Takrorlash. Xatolar ustida ishlash. Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Kirish. Badiiy matnni tahlil qilish bosqichlari.**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga asarni o'qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g'oyasini (yoki g'oyalarni) ochib berishdagi, voqealar rivojida o'rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so'zlari, xatti-harakatlariga) e'tibor berish, o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o'rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko'nikmalarini boyitish..

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

mediamanba va kutubxonalardan zarur ma'lumotlarni topa olish va ulardan foydalanish.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

doimiy ravishda o'z-o'zini ma'naviy rivojlantirish, mustaqil o'qib-o'rganish.

**Darsning metodi:** og'zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Asardagi obrazlarga tavsif berishda undagi dalillarga suyanamiz. Matndagi Sherzodning xarakteri tasvirlangan o'rinlarga e'tibor bersak, u haqida shunday deyilgan:

- U yerga ura, ko'kka sapchiydigan, tinib-tinchimas bola.
- U maktabga ham yolchitib bormaydi.
- Uning og'zidan saqich, qo'lidan cho'zma tushmaydi.
- Uning cho'ntagi to'la tosh.
- Undan uchib-qo'nib yurgan qushlar ham bezillaydi.

Demak, “Sherzod yaxshi bola emas, u – ko‘cha bezorisi” degan xulosaga kelishimiz mumkin, to‘g‘rimi? Ammo badiiy asarni o‘qishda voqealarga faqat bir tomonlama qarash yaramaydi. Tanganing ikki tomoni bo‘lganidek, asar voqealarining, voqealarni harakatga keltiruvchi obrazlar yoki qahramonlarning ham turli qirralari bo‘lishi mumkinligini unutmasligimiz lozim. Quyidagi ma‘lumotlar Sherzod haqida matnda aytilmagan gaplar ustida ham o‘ylab ko‘rishga ehtiyoj tug‘diradi:

- Sherzod kamdan kam xursand bo‘lib yuradi.
- U uyiga kirishga shoshilmaydi, ko‘chada yuraversam deydi.
- Dadasi ichadi, oyisi bilan urush-janjal qilaveradi.

E’tibor qilsak, berilgan savollar matnda bor ma‘lumotlarni topishga emas, balki bor ma‘lumotlar asosida “yozilmagan” narsalarni – yozuvchi ochiq aytmagan fikrlarni kashf etishga qaratilgan. Misol uchun, yozuvchi asardagi bolani Ulug‘bek deb atashi tasodif emas. Ulug‘bek kelajakda buyuk olim Mirzo Ulug‘bek kabi falakiyot ilmini o‘rganmoqchi edi. Yozuvchi “Ulug‘bek” ismi orqali bolaning aqlli, dono, zehni ekaniga ishora qilyapti. “Kechasi adashib qolgan odamlar, kemalar, hatto qushlar ham Qutb yulduziga qarab yo‘llarini aniqlab oladilar, – dedi Ulug‘bek”. Ulug‘bek xuddi Sherzodga o‘xshab adashib qolganlarning yo‘lini yoritmoqchi bo‘lgan yaxshi insonlar toifasidan edi. Ammo, afsuski, mana shunday iste’dodli bola bir umrga “dunyoga bir ko‘z bilan qarash”ga majbur bo‘lib qolishi mumkin. Uchinchi bosqich – mutolaadan so‘ng. Bu bosqichda matnni yaxlit tushunishimiz, umumlashtirishimizga imkon beruvchi savollar ustida o‘ylab ko‘ramiz. Bu savollarga javob berish jarayonida asar haqidagi avvalgi va keyingi tasavvurlarimizni solishtirishimiz, hayotiy tajribalarimiz va avval olgan bilimlarimizga tayanib tahlil qilishimiz mumkin.



#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash**

- 1.Asar sarlavhasi haqidagi avvalgi va keyingi xulosalaringizni qiyoslang. Nimalar o‘zgardi?
- 2.Solijon aka tilidan aytilgan “Shu yoshda dunyoga bir ko‘z bilan qarab qolmasinda...” degan gapni qanday tushundingiz?

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Abdulla Qahhor: “O‘g‘ri” hikoyasi: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash**

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

umuminsoniy va milliy qadriyatlarni e’zozlash, orasta kiyinish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

oddiy kun tartibini tuza olish, unga amal qilish.

**Darsning metodi:** og‘zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo‘limlar</b>	<b>Vaqt</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Abdulla Qahhor (1907–1968) – o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri. Uning bolaligi hozirgi Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahri atrofidagi qishloqlarda o‘tgan. U dastlab maktabda, keyinchalik o‘qituvchilar tayyorlaydigan o‘quv yurtida, so‘ngra O‘rta Osiyo davlat universitetida (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti) tahsil olgan.

Abdulla Qahhor shunday yozadi: “Bolaligimni o‘ylaganimda chalakam-chatti tush ko‘rgandek bo‘lar edim. ... Zehnimda shunga o‘xshagan qalqib yurgan xotiralardan tashqari

qalqimasdan toshdek cho‘kib yotgan xotiralar ham hisobsizligidan uzoq zamon bexabar ekanman. Bundan meni Anton Pavlovich Chexov domla xabardor qildilar. Bundan o‘ttiz yil burun Chexovning kitoblarini qo‘limdan qo‘ymasdan o‘qib chiqdim. Shunda alomat bir hodisa yuz berdi: shu bilan muhtaram ustod menga go‘yo muborak ko‘zoynaklarini berdilar-u: “Mana buni taqib, o‘z xalqingning o‘tmishiga nazar sol!” – dedilar. Bolaligimda zehnimga cho‘kib qolgan xotiralar uyg‘ondi, yuzaga chiqdi, o‘sha vaqtdagi xalq hayoti ko‘z oldimga keldi. Mana shuning natijasi bo‘lib g‘am-g‘ussaga to‘la “O‘g‘ri”, “Tomoshabog‘”, “Bemor”, “Anor” kabi hikoyalar vujudga keldi”.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston hududining bir qismi Turkiston deb atalgan va Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan. “O‘g‘ri” hikoyasi shu davrdagi xalqimiz hayoti haqida hikoya qiladi. Tarixiy davr muhitini ko‘rsatish uchun muallif hikoyada bir qancha eskirgan, hozirgi tilimizda ishlatilmaydigan so‘zlardan foydalanadi:

oqposhsho – Rossiya imperiyasi hukmdorini xalqimiz shunday atagan;

ellikboshi – mahalla yoki ovul rahbari;

mingboshi – tuman yoki daha hokimi;

amin – bir necha qishloqni boshqargan amaldor;

pristav – politsiya boshlig‘i;

tilmoch – tarjimon.



Toshkent. XIX asr oxiri

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash**

“Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin. ... Ho‘kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo‘yish kerak bo‘ladi”. O‘ylab ko‘ring-chi, nega ho‘kiz dehqon uchun juda muhim hayvon bo‘lgan?

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyg‘a vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (sana)

*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## **Zokirjon Admin bilan**

*90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*

**40 listdan iborat adabiyot fanidan 6-sinf I chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.**



Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

To‘lov uchun: **UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:  
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***  
***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**